

PREZIDENT VA YOSHLAR UCHRASHUVI, ALOHIDA E'TIBOR VA KENG IMKONIYATLAR SARI YO'L

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti tyutori
Baxranova Muhayyo Raxmat qizi.*

Prezident Shavkat Mirziyoev 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqot qildi. Videoselektor shaklida o'tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi. Ushbu Videoselektorda men ham Shahrisabz davlat pedagogika instituti tyutorlari nomidan qatnashib prizedentimizning yoshlarga berilayotgan e'tiborlarini, nutqlarini tinglab yurtboshimizning yoshlar uchun ochayotgan keng imkoniyatlaridan quvonchga to'ldim.

Ko'ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz yoshlari bilan muloqoti boshlandi. Uchrashuvda yoshlar bilan ishlash natijadorligini yanada oshirish, ularga yanada keng imkoniyatlar yaratish chora-tadbirlari muhokama qilindi, faol yoshlarning takliflari eshitildi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida azmu shijoatli, navqiron yoshlar bilan uchrashib turganidan mamnunligini bildirib, ularning timsolida Yangi O'zbekistonning bugungi va ertangi bunyodkorlarini ko'rayotganini ta'kidladi. Prezidentimiz: "Buyuk shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, yoshlik – bu qalbning oltin sozi. Bunga qo'shimcha qilib, yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi, desak to'g'ri bo'ladi", – deya alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonning tarixi va buguniga nazar tashlab, yoshlarga katta ishonch bildirdi. "Aholimizning 60 foizini aynan yoshlar tashkil etishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Bugungi kunda biz mard va matonatli xalqimizga, serg'ayrat yoshlarimizga ishonganimiz uchun o'z oldimizga katta-katta maqsadlar qo'ymoqdamiz, marrani baland olmoqdamiz.

Kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiylar qayerdan paydo bo'ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi?

Men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Albatta, bu ezgu g'oyalarni sizlar – bugungi Yangi O'zbekiston yoshlari amalga oshirasizlar», - dedi Prezident.

O'zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qizlar kirib kelmoqda. 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 1 million nafarga yetadi.

Yoshlarning bandligini ta'minlash, intilishlariga sharoit yaratish davlatimizning ustuvor siyosatiga aylangan. O'tgan 8 yilda yosh tadbirkorlar soni 3 karra ko'payib, ular bugun biznes vakillarining salkam 40 foizini tashkil etmoqda.

Ishsiz yoshlar 2 karra kamaydi. Ishsizlikdan xoli mahallalar soni 1 ming 889 taga yetdi. “Yoshlar daftari” orqali o‘tgan yili 180 ming nafar yoshlarga 345 milliard so‘mlik yordam ko‘rsatildi.

Prezidentimiz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni yanada kengaytirish choralarni ishlab chiqishni aytib, yoshlar uchun barcha sharoitlar yaratishga tayyor ekanliklarini alohida ta’kidladilar. Ilgari oliy ta’limda bitta o‘rin uchun kamida 10 nafar bola kurash olib borar edi. Qisqa davrda oliygohlar soni 3 barobar oshirilgani natijasida endi 42 foiz yoshlar qamrab olinmoqda. Xotin-qizlarga shartnoma to‘lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani hisobiga, ularning soni 11 karra ko‘paydi. O‘z sohalarida muvaffaqiyatga erishayotgan o‘g‘il-qizlar safi tobora kengaymoqda. Birgina misol – hozirgi vaqtda dunyodagi nufuzli universitetlarda 1 ming 500 dan ziyod talabalarimiz tahsil olmoqda.

Avvalgi 25 yil ichida davlat hisobidan 800 nafar yigit-qiz xorijga o‘qishga ketgan bo‘lsa, birgina “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali so‘nggi 7 yilda 2 ming 300 nafar vatandoshimiz shunday imkoniyatga ega bo‘ldi.

Ilmiy darajali yosh olimlarimiz soni ham 2 karra ko‘payib, 4 ming nafardan oshdi. Mutolaa madaniyatini shakllantirish umummilliy harakatga aylandi. An’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi ishtirokchilari soni 3 millionga yetganligi ham yoshlarga, ta’lim sohasiga berilayotgan e’tiborning natijasidir.

Ayniqsa, farzandlarimiz orasida chet tillarni o‘rganishga qiziqish keskin kuchaydi. So‘nggi 3 yilda til o‘rganayotgan yoshlar soni 2 millionga yetgan bo‘lsa, “IELTS” imtihonidan yuqori ball olganlar 5 karra ko‘paygan. Yurtimizdagi yoshlar siyosati xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar – 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy olganligi ham yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning samarasi desak adashmaymiz.

Uchrashuvda Prezident yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 3 ta muhim hujjat imzolaganini ma’lum qildi.

Birinchi hujjatga ko‘ra, Yoshlar agentligi huzurida jamg‘arma tuzilib, unga 100 million dollar mablag‘ ajratildi. Endi tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so‘mgacha imtiyozli kreditlar beriladi, startap loyihalariga 2 milliard so‘mgacha investitsiya kiritiladi.

Ikkinchi qaror bilan, oliy o‘quv yurti bitiruvchilarining bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun Milliy bankka 100 million dollar yo‘naltirilib, ularning tashabbus va g‘oyalarini loyihaga aylantirish bo‘yicha bank xizmatlari joriy etiladi. Shuningdek, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha hokimlar, bank va korxona rahbarlaridan iborat komissiya tuziladi.

Uchinchi hujjatga ko‘ra, Aloqabank yoshlarning biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi tayanch “Yoshlar banki” aylantirilib, unga 200 million dollar beriladi.

Aloqabank o'zini o'zi band qilgan yoshlarning loyihalari uchun 100 million so'mgacha 7 yil muddatga imtiyozli mikroqarz ajratadi.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan, kamida 20 nafar yoshni ishga olib, kichik korxona ochgan va o'quv markazi tashkil qilgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit beriladi. Bank kreditlarining kamida 30 foizi xotin-qizlar tadbirkorligi uchun yo'naltiriladi. Bunda yoshlarning katta o'rni bor.

Kreativ iqtisodiyot sohalarida faoliyat ko'rsatayotganlarning 98 foizi yoshlar. O'tgan yili bu bo'yicha qonun qabul qilinib, huquqiy asoslari belgilandi. Endi hududlarda ham kreativ industriya parklari barpo etiladi. Ularning rezidentlariga 2030-yil yakunigacha imtiyozli soliq rejimi qo'llanadi. Bu borada biznes maktablari tashkil qilinib, biznes yuritish hamda elektron tijorat kabi xizmat ko'rsatishning innovatsion usullari o'rgatiladi. Ish topishda xorijiy tillarni bilish juda muhim. Shu bois chekka hududlarda chet tillariga ixtisoslashgan o'quv markazlari ochadigan "C1" darajasiga ega malakali yoshlarga 120 million so'mgacha foizsiz ssuda beriladi. Shuningdek, xususiy o'quv markazlarida xorijiy tillarni o'rganadigan yoshlarga to'lovlari "2+6" oy shaklida qoplab beriladi. IT sohasida "Bir million dasturchi" loyihasiga qo'shimcha 300 ming yoshlar jalb etiladi. "Raqamli ijtimoiy ekotizim"ni joriy etish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqiladi. Kambag'allikdan chiqishning eng samarali yechimi ham – bu ta'lim. Shu bois bunday oilalar farzandi foizsiz ta'lim krediti, qo'shimcha grant, shartnoma to'loviga yordam orqali o'qishga rag'batlantiriladi. Bilimga chanqoq, lekin oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha yangi tizim – "Yorqin istedod" loyihasi joriy etiladi.

Yoshlar agentligi xorijda o'qiyotgan har bir talabaga bosh-qosh bo'ladi. Bilimli yigit-qizlar dunyoning "Top-100" oliygohlariga yuborilib, o'qish va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Chet elda o'qib kelganlar milliy kadrlar zaxirasiga kiritilib, davlat organlariga tanlovsiz ishga olinadi. 35 yoshgacha bo'lgan "Top-100" oliygohlariga ilmiy daraja olgan yoshlarga 10 yil muddatga 800 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi. Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g'olib va sovrindor bo'lganlar uchun bir martalik pul mukofoti miqdori 5 karra oshiriladi.

Energetika, transport, urbanizatsiya, zamonaviy arxitektura, tibbiyot yo'nalishlarida "El-yurt umidi" jamg'armasi kvotalari ko'paytiriladi. Harbiy bilim yurtlarining namunali tinglovchilari uchun "Oliy bosh qo'mondon" davlat stipendiyasi joriy etiladi. Kelgusi o'quv yilidan boshlab o'quvchilar o'rtasida muhandislik olimpiadalari va tanlovlar o'tkazish yo'lga qo'yiladi. G'olib bo'lgan bitiruvchi yoshlar texnika oliygohlariga grant asosida o'qishga kiradi.

Yig'ilishda yosh avlodda milliy ruhiyatni shakllantirish, g'oyaviy xurujlar va zararli axborotlardan asrash masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Tarbiyasi og'ir bolalarga alohida mehr-e'tibor ko'rsatish, hayotda o'rnini topishiga ko'maklashish

zarurligi aytiladi. Vatanparvarlik hissini kuchaytirish maqsadida 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Vatan tayanchi" harakati boshlandi. Unga 300 mingdan ziyod yoshlar qamrab olindi. Endi bu harakat kasb-hunar maktabi, texnikum va xususiy ta'lim tashkilotlarida ham yo'lga qo'yilib, 1 million o'quvchi qamrab olinadi. Ular o'rtasida turli tanlov va musobaqalar tashkil etiladi. Shuningdek, mahallalarda "Shijoat va g'ayrat" sport o'yinlari o'tkaziladi. G'olib mahallalarga sport inshooti qurilib, anjomlar bilan ta'minlanadi. "Vatan tayanchi" hamda "Shijoat va g'ayrat" musobaqalari g'oliblariga harbiy bilim yurtlariga kirish uchun tavsiya beriladi. Muloqotda so'zga chiqqanlar mazkur reja va tashabbuslar yoshlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratishi, ularning orzu-intilishlariga rag'batlantiruvchi kuch bo'lishini ta'kidlashdi. Davlatimiz rahbari yoshlarning takliflarini ma'qullab, ularni har doim qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildirdilar.

Biz ham prezidentimizning yoshlarga berayotgan e'tiborlari va imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlagan holda bor kuchimiz va bilimimiz bilan talabalarimizning ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanib kelgusida O'zbekistonning nomini dunyoga tanitishlarida qo'limizdan kelgancha harakat qilamiz.